



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 24-dekabr, № 271 (9166)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA AQSH YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari suhbat avvalida AQSh Prezidentini yaqinlashib kelayotgan yangi yil bayramlari bilan tabriklab, do'st Amerika xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Donald Tramp, o'z navbatida, O'zbekiston yetakchisi va xalqiga o'zining hamda AQSh xalqining samimiy salomi hamda tabriklarini yo'llab, yangi yilda baxt-saodat, muvaffaqiyatlar va yangi zafarlar tiladi.

Prezidentlar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O'zbekiston – AQSh strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko'rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampning joriy yilda ichki va tashqi siyosatda erishgan muvaffaqiyatlariga yuksak baho berib, ularning o'tkir xalqaro inqirozlar va mojarolarni hal etish borasidagi samarali say-harakatlarini alohida ta'kidladi.

Ikki tomonlama siyosiy muloqot va almashinuvlar, ayniqsa, yetakchilar darajasida faollashib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab bergani va uni aniq mazmun bilan boyitgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Fuqaro aviatsiyasi, avtosanoat, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi,

infratuzilma, energetika va kimyo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqa sohalarda o'nlab milliard dollarlik qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Amaldagi loyiha va dasturlarni samarali ilgari surish hamda yangilarini ishlab chiqish maqsadida Amerika – O'zbekiston ishbilarmonlar va investitsiyalar kengashi tashkil etildi. Qo'shma Investitsiya fondini ta'sis etish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Hududlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi mexanizmi ishga tushirildi. O'zbekistonning uchta viloyati delegatsiyalari Amerika shtatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun ushbu mamlakatda bo'ldi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, ko'p tomonlama hamkorlik, jumladan, “S5+1” formatining ahamiyati ta'kidlandi.

Suhbat yakunida tomonlar oliy darajadagi faol muloqotlarni davom ettirish niyatini tasdiqladilar hamda amaliy hamkorlik bo'yicha qo'shma tashabbus va dasturlarni ilgari surishga kelishib oldilar.

O'zbekiston Prezidenti Amerika yetakchisini o'zi uchun qulay muddatda mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev to'qimachilik sanoatida 2025-yil yakunlari hamda kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda tarmoqda erishilgan natijalar, ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi, shuningdek, 2026-yilga mo'ljallangan maqsadli rejalar atroficha ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, 2025-yilda to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 134 trillion so'mni tashkil etgan. Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish 2,1 milliard dollarga yetgan. Eksport hajmi esa 2,5 milliard dollarni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan o'sish ta'minlangan. Tarmoqda band aholi soni 623 ming nafarga yetgani, kelgusi yilda ushbu ko'rsatkichni 650 ming nafargacha oshirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlandi.

2026-yilda paxta xomashyosini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish hamda gazlama, trikotaj va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish ko'zda tutilgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini 147 trillion so'mga, eksportni esa 3,3 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Tarmoqqa 2,2 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish reja qilingan. Buning evaziga 207 ming tonnalik sintetik, aralash ip, 397 million kvadrat metrlik gazlama, 224 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hamda 108 million kvadrat metr mato bo'yash bo'yicha qo'shimcha quvvatlar barpo etiladi.

Shu bilan birga, tarmoqni barqaror rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim omillar ham qayd etildi. Xususan, paxta tolasiga bo'lgan talabning bir qismi import hisobiga qoplanayotgani, moliyaviy resurslar qiymatining yuqoriligi, tashqi bozorlarda logistika xarajatlari ortishi va ayrim yo'nalishlarda malakali mutaxassislar yetishmasligi soha oldida turgan dolzarb masalalar sifatida ko'rsatib o'tildi.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida 2026-yil uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Jumladan, korxonalarga aylanma mablag' uchun 200 million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratish, 138 ta korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish, 100 ta yangi korxonani eksport faoliyatiga jalb qilish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro standart va sertifikatlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratiladi. “Better Work”, “BCI”, “FWF”, “Organic EU” kabi dasturlar 60 ta korxonada tatbiq etiladi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 15 ta korxonada joriy qilinadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlar sifati bo'yicha 24 tirdagi tahlillarni o'tkazuvchi zamonaviy to'qimachilik laboratoriyasi tashkil etiladi.

Tarmoqda raqamlashtirishni jadallashtirish, “ERP” tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Bu jarayonga 40 ta korxona jalb etiladi.

Xorijiy hamkorlikni kengaytirish doirasida xalqaro sorsing kompaniyalari va yirik brendlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, marketing tadqiqotlari va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, xorijiy korxonalar relokatsiyasini rag'batlantirish bo'yicha aniq rejalar belgilab olingan.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan yondashuvlarni ma'qullab, tarmoqda tayyor mahsulot ulushini izchil oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, investitsiya va eksport salohiyatini to'liq ishga solish bo'yicha mas'ullar oldiga aniq vazifalarni qo'ydi. Barcha chora-tadbirlar tarmoqni barqaror, raqobatbardosh va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan tizimga aylantirishga xizmat qilishi zarurligi ta'kidlandi.

O'za.

Yig'ilish

HUDUDLAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN TAKLIF VA TASHABBUSLAR

Oliy Majlis Senatida Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi hamkorligida tuzilgan ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Unda O'zbekiston aholisining 2050-yilgacha bo'lgan prognozini hisobga olgan holda hududlarni ijtimoiy rivojlantirish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va shu asosda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish masalasi muhokama qilindi.

O'zbekiston aholisi soni bugungi kunda 38 millionga yaqinlashmoqda. 2030-yilga borib 41 millionga yetishi, 2050-yilda esa 50 milliondan ortishi kutilmoqda.

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi mutaxassislari tomonidan vazirlik va idoralar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda aynan qaysi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarurligi bo'yicha tavsiyalar berildi.

Yig'ilishda senatorlar, vazirlik va idoralar mutaxassislari tomonidan respublikaning ayrim hududlari misolida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlarini belgilab olish va shu asosda o'rganish o'tkazish taklifi bildirildi. Ayniqsa, ijtimoiy sohalarda aholining ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishida erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar dolzarbligiga e'tibor qaratildi.

“Xalq so'zi”.

TABIATNI ASRASH HAR BIRIMIZNING ZIMMAMIZDA

Sir emas, poytaxtimiz va bir qator hududlarda atmosfera havosining ifloslanish holati yuzaga keldi. Bu bizga toza atrof-muhitning qadr-qimmatini yana bir karra namoyon qildi va yon-atrofimizdagi ekologik muammolarga bee'tibor bo'lmaslikni, tabiat va yashillikni asrash zarurligini qayta yodimizga soldi.

Mulohaza

Shu bois bugungi kunda ekologik masalalar nafaqat mutaxassislar, balki keng jamoatchilik, ota-onalar, yoshlar va tadbirkorlar uchun ham dolzarb mavzuga aylandi. Har

birimiz olayotgan havoning tozaligi salomatligimiz, farzandlarimiz kelajagi va yurtimizning barqaror rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq ekanini anglab yetdik.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

XALQIMIZ MANFAATLARI USTUVORLIGI VA XALQARO TAMOYILLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda jismoniy tarbiya va sport, shuningdek, sud-ekspertlik faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ekologik toza hududlarning huquqiy maqomini belgilashga, fitosanitariya sohasidagi qonun hujjatlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga nisbatan huquqlarni e'tirof etish, korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzani ko'rib chiqish tartibini takomillashtirishga doir qator qonun loyihalari atroficha ko'rib chiqildi. Shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar muhokama qilindi.

Ish beruvchilar xodimlarning sport bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratadi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Ushbu loyiha bilan aholini ommaviy sportga jalb qilish va ommaviy sport tadbirlarini tizimli o'tkazib borish, sport turlarini e'tirof etish va ularning reestrini

yuritish tartibini takomillashtirish, sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish choralari belgilanmoqda.

Loyihada sport federatsiyalarining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, ularni reestrga kiritish va chiqarish mezonlari, sport klublari va sport ligalarining huquqiy maqomi va faoliyat yuritish tartibi, trener, sport hakami va sport agentining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari ham o'z ifodasini topmoqda.



Qonun loyihasi bilan Milliy antidoping agentligining huquqiy maqomi ham belgilanib, sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish tartibi takomillashtirilmoqda. Bundan tashqari, ish beruvchilar xodimlarning sport bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratishi ko'zda tutilyapti. Sport sohasidagi nizolarni esa sudgacha hal etish tartibini joriy qilish nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.



Prezident tashrifidan so'ng

YANGI NAMANGAN ZAMONAVIY VA KO'RKAM QIYOFA KASB ETMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu yil sentabr oyida Namangan viloyatiga tashrifi chog'ida Norin tumanidagi Sho'rariq mahallasida to'xtab, aholi bilan muloqot qilgani qishloq ahli uchun kutilmagan quvonchli voqea bo'lgandi. Davlatimiz rahbari mahalla infratuzilmasi bilan tanishib, uni tubdan yangilash hamda nomini “Yangi Namangan” deb o'zgartirish taklifini bildirgandi. Mana oradan uch oydan ko'proq vaqt o'tdi. Xo'sh, mahalla hayotida nimalar o'zgardi, odamlarning kayfiyati qanday, rejadagi ishlar-chi?

Atamada zohirdir inson murodi

Mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi yaqin o'tmishimizni hammamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonni paxta xomashyo bazasiga aylantirish siyosati oqibatlari ham barchamizga ma'lum. Bu siyosat qurbonlaridan biri – Norin tumanidagi o'sha davr g'oyalariidan kelib chiqib “Paxtaqishloq” deya nomlangan hududda tashkil etilgan “O'zbekiston” jamoa xo'jaligi edi. Bu yerda azaldan sabzavot va bog'dorchilikdan, chorvachilikdan baraka topib kelayotgan

mahalliy aholi faqat paxta ekishga majburlangan edi. Keyinchalik qishloq markazi o'sha davr mafkurasiga moslab “Sho'ro” deb ataldi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach sobiq ittifoq davridagi soxta atamalar yangilariga almashtirildi. Biroq bunda doim ham mahalliy aholi xohish-istaklari, intilishlari inobatga olinmadi. Sho'ro qishlog'i ham mahalla guzaridan kesib o'tuvchi ariqqa nisbat berilib, “Sho'rariq” deb atab qo'ya qolindi.

Kortej o'z yo'nalishini nega o'zgartirdi?

2025-yil 16-sentabr. Prezidentimizning Namangan viloyatiga tashrifi tafsilotlarini butun xalqimiz qiziqish bilan televizor va ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib turadi. Kutilmaganda davlatimiz rahbari tashrif rejasidan chetga chiqib, qishloqlardan birida to'xtagani va mahalliy aholi bilan muloqot qilgani haqida xabarlar tarqaldi. Bu Norin tumanidagi Sho'rariq qishlog'i edi.



O'zbekiston – Yaponiya:

STRATEGIK SHERIKLIK POYDEVORINI MUSTAHKAMLAGAN TARIXIY TASHRIF

Yaponiya dunyoning iqtisodiyoti yetakchi davlatlaridan biri bo'lib, yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha to'rtinchi o'rinni egallab turibdi. Mamlakat yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, mashinasozlik va bilim talab qiladigan mahsulotlar eksportiga ko'ra ilg'orlardan biri bo'lib qolmoqda.

Nuqtai nazar

Jahon hamjamiyatining mas'uliyatli a'zosi bo'lgan Yaponiya Jahon savdo tashkiloti va APECda faol ishtirok etadi, savdo bitimlarini ishlab chiqish va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish borasida alohida ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 18 – 20-dekabr kunlari Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ana shu iqtisodiy va moliyaviy qudratga ega davlat bilan ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi, sifat jihatdan yuksalish bosqichini boshlab berdi.

Tashrifning asosiy xususiyati iqtisodiy sheriklikni aniq amaliy mazmun bilan boyitishga qaratilgani bo'ldi. Ko'p yillar davomida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlar, asosan, gumanitar hamkorlik va texnik ko'mak loyihalariga tayangan bo'lsa, bugungi kunda mamlakatimiz yetakchisining pragmatik va izchil siyosati tufayli ikki tomonlama kun tartibi tubdan qayta shakllantirildi. Endilikda u savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning barcha muhim yo'nalishlarini qamrab oldi. Bunga yorqin dalil sifatida umumiy qiymati 12 mlrd. dollardan ortiq bo'lgan yangi kooperatsiya loyihalari portfelining shakllantirilganini keltirish mumkin. Ushbu kelishuvlar ta'lim, sog'liqni

saqlash, ekologiya va suv resurslarini boshqarish, transport va shaharsozlik, turizm, qishloq xo'jaligi, shuningdek, tabiiy ofatlar xavfini boshqarish kabi muhim sohalarni qamrab oladi. Ayniqsa, “yashil” energetika, energiyani saqlash tizimlarini rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo'yicha qo'shma loyihalarga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, yetakchi yapon korporatsiyalari bilan uzoq muddatli hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi va bu kelgusidagi munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) bilan qo'shma loyihalar portfeli energetika, neft-kimyo, transport, ta'lim va qishloq xo'jaligi kabi sohalarni qamrab olgan. “Yashil” energetika va sanoatda uglerod chiqarishni kamaytirish, axborot texnologiyalari, o'ta muhim minerallar, mashinasozlik sohasidagi hamkorlik, sog'liqni saqlash va turizm infratuzilmasi modernizatsiyasi ham ustuvor yo'nalishlardan. Bundan tashqari, Samarqand viloyatida Yaponiya modeli va standartlariga asoslangan maxsus iqtisodiy zonani barpo etish rejalarini e'lon qilindi.





Oʻzbekiston – Yaponiya:

STRATEGIK SHERIKLIK POYDEVORINI MUSTAHKAMLAGAN TARIXIY TASHRIF



Yaponiyalik hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan “Bir qishloq – bitta mahsulot” dasturining koʻlamini kengaytirish taklifi qoʻllab-quvvatlandi.

Yaponiya “iqtisodiy moʻjizasi”ning asosi

Taʼlim va kadrlar tayyorlash sohasi anʼanaviy ravishda ushbu koʻp qirrali munosabatlarning muhim qismi sanaladi. Yoshlarga kelgusida tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishi uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarni egallashiga keng imkoniyatlar taqdim etayotgan Oʻzbekiston – Yaponiya Inson resurslarini rivojlantirish markazi mamlakatimizda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Oʻzbekistondagi 7 ta oliy taʼlim muassasasida yapon tili oʻqitilmoqda. Tokio chet tillar universitetida mana, oʻn yildirki, oʻzbek tili oʻrganilmoqda. Prezidentimiz tashrifi doirasida Yaponiyaning yetakchi oliy taʼlim muassasalari rektorlari bilan uchrashuv natijasida hamkorlik dasturlari, ilmiy va innovatsion almashinuvlarni kengaytirish boʻyicha muhim kelishuvlarga erishildi. Sukuba universiteti bilan birgalikda Toshkent shahrida birinchi Oʻzbekiston – Yaponiya universitetini ochish rejalashtirilayotgani malakali kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Yaponiya “iqtisodiy moʻjizasi”ning asosini tashkil etuvchi taʼlim, fan va inson kapitalini rivojlantirishga investitsiyalar Oʻzbekiston – Yaponiya hamkorligining strategik yoʻnalishlaridan biri. Bugungi kunda 2,8 mingdan ortiq oʻzbekistonlik talabalar Yaponiyaning yetakchi taʼlim muassasalarida tahsil olmoqda. Birgina “JDS” stipendiya dasturi boʻyicha 440 dan ziyod davlat xizmatchilari Yaponiyada oʻqitildi. Rektorlar forumi oʻzaro aloqalar uchun samarali maydonga aylandi.

Madaniy va sayyohlik aloqalarini kengaytirish maqsadida madaniyat kunlari, koʻrgazmalar, yoshlar forumlari, kinofestivallarni muntazam oʻtkazib borish taklif qilindi. Tashrif arafasida Yaponiyada Oʻzbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli oʻtkazildi. Diplomatik munosabatlar oʻrnatilganining 35 yilligi munosabati bilan 2027-yilda ikki mamlakatda “Madaniyat yillari” oʻtkaziladigan boʻldi.

Oʻzbekiston Prezidenti va Yaponiya Bosh vaziri tomonidan

imzolangan kelgusi avlodlar uchun kengaytirilgan strategik sheriklik toʻgʻrisidagi qoʻshma bayonot, shubhasiz, munosabatlarni yangi bosqichga koʻtarish va koʻp qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Tashrif doirasida taʼlim, sogʻliqni saqlash, ekologiya, suv resurslari, transport, shaharsozlik, turizm, qishloq xoʻjaligi, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish sohalarida salmoqli kelishuvlar toʻplami qabul qilindi.

Hamkorlikning yangi arxitekturası

Tashrif doirasida mintaqamiz davlatlari va Kunchiqar mamlakat oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim qadam boʻlgan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining ilk sammiti boʻlib oʻtdi. Yigʻilishda hududiy



rivojlantirayotgan davlatlardan biri boʻlib qolmoqda. Bu jarayon ayniqsa, “Ipak yoʻli diplomatiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan saʼy-harakatlarda yaqqol kuzatilayotir. Masalan, Yaponiya va Markaziy Osiyo davlat rahbarlari uchrashuvida barqaror rivojlanish, “yashil” texnologiyalar va mintaqaviy taʼsirni diversifikatsiyalash masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Umuman, Yaponiya “yashil” energiyaga oʻtish va “aqli” shaharlarni shakllantirishni

yuqori sifatli mahsulotlari va taraqqiyotga nisbatan innovatsion yondashuvi ham Markaziy Osiyo uchun oʻta muhim. Bu davlat oʻz imkoniyatini raqobatchi emas, balki toʻldiruvchi tamoyili asosida taqdim etmoqda. Mamlakatimizning mintaqada oʻzaro ishonch, yaqin qoʻshnichilik va mukammal hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarini toʻliq qoʻllab-quvvatlayapti. Demak, Oʻzbekistonni nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy jihatdan ham muhim hamkor sifatida koʻradi. Mintaqaviy xavfsizlik, transchegaraviy muammo va iqtisodiy integratsiya masalasida ham manfaatlarimiz uygʻun.

Koʻp vektorli tashqi siyosatning yorqin namunasi

Markaziy Osiyo ekologik muammolar, suv resurslari va iqlim oʻzgarishi taʼsiriga duch kelayotgan mintaqada sifatida kam uglerodli va resurs tejovchi texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqda. Yaponiyaning ushbu sohada innovatsiyalari modernizatsiyani ekologik xavfsiz yoʻnalishga burish imkonini beradi va iqtisodiy oʻsish bilan ekologik barqarorlik oʻrtasida muvozanatni taʼminlashga xizmat qiladi.

Rasmiy rivojlanish yordami, imtiyozli kreditlar va texnik koʻmak orqali amalga oshirilayotgan hamkorlik loyihalari qisqa muddatli natijalardan koʻra, mahalliy kadrlar tayyorlash, milliy institutlarni mustahkamlash va oʻz-oʻzini taʼminlay oladigan tizimlar yaratishga qaratilgan. Bu esa iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda tashqi yordamga doimiy qaramlikni emas, balki ichki salohiyatga tayanishni ragʻbatlantiradi. Shu tariqa, Yaponiya iqlim oʻzgarishi va suv-energetika masalalarida oʻzini faqat investor yoki texnologiya yetkazib beruvchi emas, balki bilimga asoslangan, barqaror va uzoq muddatli rivojlanishni koʻzlagan strategik sherik sifatida namoyon qilmoqda.

Kezi kelganda aytish joizki, Yaponiya bilan strategik hamkorlik Oʻzbekiston uchun bir qator afzalliklarni beradi. Xususan, Yaponiyaning yuqori texnologiyalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy etish, yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarini kengaytirish, transport, energetika va boshqa muhim infratuzilmaviy loyihalarini amalga oshirishda Yaponiya tajribasi va sarmoyasidan foydalanish,

Kunchiqar mamlakatning taʼlim va kadrlar tayyorlashdagi ilgʻor tajribalarini oʻzlashtirishga koʻmaklashadi.

Yaponiya bilan munosabatlarni strategik darajaga koʻtarish nafaqat iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, balki mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish imkonini beradi.

Umuman, bu tashrif Oʻzbekistonning ochiqlik, pragmatizm va koʻp vektorli tashqi siyosatining yorqin namunasi boʻlib, mamlakatning barqaror taraqqiyot va farovonlikka erishish yoʻlidagi qatʼiyatini yana bir bor koʻrsatdi. Yaponiya bilan mustahkamlangan sheriklik nafaqat ikki davlat uchun, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining kelajakdagi taraqqiyoti uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Prezidentimiz oʻz nutqida Yaponiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi hamkorlikning aniq yoʻnalishlarini belgilab berdi. Energetika, infratuzilma, transport, sanoat va boshqa strategik sohalarida yangi loyihalarini ishlab chiqish taklif etildi. Bu tashabbuslar sheriklikni yanada kengaytirishga xizmat qilishi muqarrar. Zero, ushbu Kunchiqar oʻlkani yirik texnologik korxonalari, moliyaviy korporatsiyalari bugun Markaziy Osiyoga katta qiziqish bildirmoqda. Bundan tashqari, ular inson kapitaliga ham alohida eʼtibor qaratmoqda. Sababi, Yaponiya aholisi tarkibida yoshlar ulushi atigi 11,2 foiz. Markaziy Osiyo davlatlarida esa bu koʻrsatkich ancha yuqori. Masalan, Oʻzbekistonda yoshlar aholining 50 foizdan ziyodini tashkil etadi.

Taʼkidlash joizki, imzolangan memorandum va kelishuvlar investorlar uchun muhim kafolat vazifasini oʻtaydi. Chunki investitsiyalarni himoya qilish biznes uchun asosiy omil hisoblanadi. Davlat rahbarlari ishtirokida bunday hujjatlarining imzolaniishi esa Yaponiya hamda Markaziy Osiyo biznes doiralari uchun kuchli ragʻbat boʻladi.

Yaponiyaga amalga oshirilgan rasmiy tashrif natijalari Oʻzbekistonning dunyodagi yetakchi texnologiya va investitsiya markazlaridan biri boʻlgan mamlakat bilan toʻlaqonli strategik sheriklikka bosqichma-bosqich oʻtib borayotganini tasdiqladi. Bu esa mamlakatimizning ilgʻor texnologiyalarni jalb etish, yirik infratuzilmaviy va sanoat loyihalarini amalga oshirish, mintaqaviy va global iqtisodiy jarayonlarda oʻz mavqegini mustahkamlashga qaratilgan strategik siyosatining uzviy davomidir.

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Tanlov

MEHNATSEVARLIK, FIDOYILIK, EL-YURT TAQDIRIGA DAXLDORLIK EʼTIROFI

Poytaxtimizda Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi tomonidan “Yil ayoli” milliy tanlovi hamda “Eng namunali xotin-qizlar faoli” tanlovining respublika bosqichi gʻoliblarini taqdirlash marosimi boʻlib oʻtdi. Unda turli vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari, joylardagi oila va xotin-qizlar qoʻmitalarining mutasaddilari, yetakchi ayollar qatnashdi.

Anjumanda soʻz olganlar Yangi Oʻzbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda maʼnaviy hayotida xotin-qizlarning ishtiroki tobora kengayib borayotganini alohida taʼkidladi.

Dastlab “Eng namunali xotin-qizlar faoli” tanlovi gʻoliblari taqdirlandi. Oʻz faoliyati bilan mahallada ijobiy muhit yaratish, aholining ijtimoiy faolligini oshirish hamda Yangi Oʻzbekiston islohotlarini quyi boʻgʻinda samarali amalga oshirishga munosib hissa qoʻshib kelayotgan 14 nafar xotin-qiz “Eng namunali xotin-qizlar faoli” deb eʼtirof etildi.

Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, har jihatdan ibratli xotin-qizlarni aniqlash, ularning faoliyatini keng jamoatchilikka yaqindan tanishtirish hamda ilgʻor ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida “Yil ayoli” milliy tanlovi oʻtkazib kelinmoqda.

Joriy yilda tanlovning tuman, shahar bosqichlarida 3 ming 14 nafar ayol ishtirok etdi. Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichlarida 208 ta tuman (shahar)dan jami 964 nafar ayol qatnashib, ulardan 150 nafari respublika bosqichida oʻz salohiyatlarini namoyon etish huquqini qoʻlga kiritdi.

Hakamlar hayʼati tomonidan soʻnggi bosqichda birinchi oʻringa Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori Dildora Muhamedova, ikkinchi oʻringa Xorazm viloyatining Yangiariq tumanidagi “Artatex” MChJ taʼsischisi Nargiza Bekmuratova, uchinchi oʻringa Surxondaryo viloyati prokuraturasi boʻlim boshligʻi Umida Begmatova loyiq koʻrildi. Tanlovning Granprisi – Oliy oʻrin Samarqand viloyatining Kattaqoʻrgʻon shahridagi “Anvarjon biznes invest” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari Gulmira Jumayevaga nasib etdi. Unga



Prezident sovrini – avtomobil topshirildi.

Gulmira Jumayeva uzoq yillar davomida xorijda mehnat migratsiyasida boʻlib, chiqindilarni qayta ishlash korxonasida faoliyat yuritgan. 2016-yilda Vatanga qaytib, oʻrttirgan tajribasini yurtimiz manfaatlariga yoʻnaltirish hamda atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, aholidan chiqadigan maishiy chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan samarali faoliyatni yoʻlga qoʻydi.

– Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, 5 ta masʼuliyati cheklangan jamiyatni tashkil etdim, – deydi u. – Ularda 450 ga yaqin yoshlar va xotin-qizlar doimiy ish oʻrinlariga ega boʻldi. Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish maqsadida Xitoydan 100 ming AQSh dollari miqdorida zamonaviy asbob-uskunalar olib kelganimiz hisobiga soʻnggi 5 yilda korxonalarimizda 178 milliard soʻmlik mahsulot tayyorlandi. “Yil ayoli” tanlovi – mehnatsevarlik, fidoyilik, el-yurt taqdiriga daxldorlik eʼtirofi. Ushbu mukofot bilan taqdirlanganlarni menga yanada baland ruh beradi, gʻayrat-shijoatimni oshiradi. Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun hormay-tlmay izlanaveramiz.

Yosh ijrochilar va taniqli sanʼatkorlar ishtirokidagi konsert dasturi yigʻilganlarga bayramona kayfiyat bagʻishladi. Tadbirida Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari – Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi raisi Zulayho Mahkamova ishtirok etdi.

Dilshod KARIMOV
 (“Xalq soʻzi”).

YANGI NAMANGAN



Davlatimiz rahbari oʻz siyosatini xalq bilan ochiq muloqot asosida olib borayotganidan xabardor boʻlsak-da, bunday voqealar kishini hayajonlantirmasdan qoʻymaydi. Chunki yuzma-yuz uchrashuvlar Prezidentimizning xalqparvarligidan dalolat beribgina qolmay, balki aholini qiynayotgan koʻplab muammolarga yechim topilishiga ham zamin yaratishiga koʻp marta guvoh boʻlganmiz. Bu safar ham shunday boʻldi.

Mahalla fuqarolar yigʻini raisi Akmaljon Xolmatovning aytishicha, davlatimiz rahbari tashrifidan keyin, endilikda “Yangi Namangan” deb nomlanayotgan mahalla hayotida katta oʻzgarishlar boshlandi.

Oradan ikki kun oʻtib viloyat hokimi mahallada kengaytirilgan yigʻilish oʻtkazdi. Oʻzaro maslahatlashib olingan viloyat hokimining Yangi Namangan mahallasi qiyofasini tubdan oʻzgartirish boʻyicha tegishli farmoyishi qabul qilinib, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari boshlanib ketdi. Mana uch oydirki, mahalla katta qurilish



maydoniga aylangan. Har bir koʻchada taʼmirlash, yangilanish jarayonlari davom etyapti. Yuzlab ishchilar maʼnan eskirgan bir necha binolar oʻrnida yangisini barpo qilish bilan mashgʻul. Davlat-xususiy sheriklik asosida tiklanayotgan bu koʻp qavatli binoning birinchi qavatida bolalar oʻyingohi, ikkinchisida savdo, uchinchisida xizmat koʻrsatish shoxobchalari, toʻrtinchi qavatda esa oʻquv markazlari ochiladi. Shuningdek, unda fitnes klub, kinoteatr, salomatlik markazi, huquq-tartibot maskani, maishiy, savdo va servis xizmat koʻrsatish obyektlari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, yana bir koʻp qavatli bino qurilib, birinchi qavatiga mahalla fuqarolar yigʻini idorasi joylashtiriladi. Oilaviy shifokor punkti, xususiy maktab hamda yoshlar uchun stadion qad rostlaydi. Mahalladagi eski bolalar bogʻchasi oʻrnida ham 330 oʻrinli zamonaviy maktabgacha taʼlim tashkiloti qurilishi rejalashtirilgan.

Shu mahallada yashovchi tadbirkor Nozimjon Rejapov mahalla

guzarida umumiy qiymati 6 mlrd. soʻmlik zamonaviy toʻyxona quryapti. Hozirgacha 4 mlrd. soʻmlik ish bajarilgan. Mahalla raisi bir necha oy avval u bilan suhbatlashib, lotoklarni yangilash haqida gapirgandi. Bu ish ham ijobiy yechimini topadigan boʻldi. Bundan tashqari, Namangan – Haqqulobod avtomagistral yoʻlining Qoʻrgʻoncha mahallasidan to Haqqulobod shahrigacha boʻlgan 13 km. yoʻl boʻyida salomatlik yoʻlakchasi tashkil etiladi. Yuksalish koʻchasidan oʻtgan ariqning 0,9 km. uzunligida betonlash majda 1,1 km. masofasida tuproq ishlari bajarilmoqda.

Qisqa fursatda yakuniga yetkazilgan ishlar ham talaygina. Mahalla raisining aytishicha, ilgari ikki marta “Tashabbusli byudjet” orqali 3 km.dan jami 6 km. ichki yoʻllar asfaltlangan boʻlsa, oʻtgan bir oy davomida qolgan 10,7 km. ichki yoʻllar ham yuz foiz asfaltlandi. Mahallada tadbirkorlar uchun “Bank xizmatlari ofisi” ochildi.

“Ichimlik suvi taʼminoti” korxonasi suv inshootlarini rekonstruksiya qilish, qariyb 14,1 km. tarmoq tortish loyihasi ishlab chiqqan. Unga koʻra quduq qazish va suv minorasi uchun yerlar ajratildi. Suv taʼminoti tarmoqlari ishchi holatiga keltirildi. Qishki mavsumda uy bekallari uchun yengillik yaratish maqsadida Bahrobdod, Istiqloq, Mustaqillik va Qoʻshchinor koʻchalaridagi 441 xonadonga suyultirilgan gazga moslashtirilgan xavfsiz moslamalar oʻrnatildi. Bu boradagi ishlar davom ettiriladi.

ZAMONAVIY VA KOʻRKAM QIYOFA KASB ETMOQDA



Obod yurt obod xonadondan boshlanadi

Albatta, amalga oshirilayotgan ishlarining hammasini bir maqolada batafsil sanab oʻtish imkonsiz. Biroq yitish mumkinki, ular norinliklar joniga oro kirsini ayni haqiqat.

Va yana aytmoqchi boʻlganimiz – Yangi Namangan mahallasidagi 8 ta koʻchaga viloyat hokimining oʻrinbosarlari, IIB boshligʻi hamda tuman hokimi masʼul etib birkirilgan. Tashkilotlar kuch va imkoniyati birlashtirilmoqda. Koʻchalarda asfaltlash, ariqlarni betonlash, soʻritok qilish hamda uylarning old qismini joriy taʼmirlash ishlari olib borilyapti. Kam taʼminlangan 35 ta oila uylarini homiylik yordami asosida taʼmirlab berish choralari koʻrilmoqda.

Mahallada 1248 ta uy xoʻjaligi boʻlib, aholi soni 5 ming 286 nafarni tashkil etadi. Xonadon egalari qariyb 33800 sotix tomoqqa mavjud. Ulardan unumli foydalanish evaziga qoʻshimcha daromad olish ham loyihalarda koʻzda

tutilgan. Mehnat migratsiyasidan qaytgan besh nafar ayol bilan suhbat oʻtkazilib, ikki nafari ishga joylashtirildi. 14 nafar xotin-qizga tikuv mashinasi berilishi natijasida ular oʻz-oʻzini daromadli ish bilan band etdi. Ishsiz ayollardan uch nafari tikuvchilikka ixtisoslashtirilgan “MIRSITI” MChJga ishga joylashtirildi.

Bunyodkorlik va hamjihatlik maydoni

Asosiysi, mahallada boshlangan keng koʻlamli obodonlashtirish va qurilish ishlari yoshu qarini hamjihatlikka undadi. Bunyodkorlik boshlangan ilk kundanoq nuroniylar oʻz fikrlarini bildirib, milliy qadriyatlarimizni unutmazlik, mehnat muhitida ham oʻzbekona anʼanalarini saqlash haqida qaygʻurishdi. Guzarga yigʻilgan otaxonlardan biri “Har kuni yuzlab odam ishlamoqda. Mehmonlar ham koʻp boʻladi. Shunday ekan, mehnatga kelgan odamga non-choy, osh tayyor boʻlsin. Oʻzbekchilikni unutmaylik!” dedi. Otaxonning fikrini hamma qoʻllab-quvvatladi. Mahalla

nuroniysi, 73 yoshli Odiljon Ismanov bu tashabbusning boshida turdi.

– Albatta, shunday qilishimiz kerak. Bu – faqat mehmonga hurmat emas, bu oʻzimizga, yurtimizga hurmat, – deydi u.

Birinchi oshni mahalla nuroniylari damlashdi. Keyin esa chiroyli anʼana shakllandi: har kuni maʼlum bir yilda tugʻilgan fuqarolar guruhi navbat bilan osh qilib bermoqda. Har bir kun – yangi dasturxon, yangi tabassum, yangi ruhияt! Koʻchada doshgozonda damlangan osh, yonimizda qadrlil nuroniylar, mehnat bilan shugʻullanayotgan yoshlar – bularning barchasi mahallaning haqiqiy yuragi urayotganidan dalolatlar.

Eʼtiborli jihat, mahallada hech kim chetda turgani yoʻq. Har kimning oʻz hissasi bor – kimdir bel bogʻlab ishlamoqda, kimdir mehnatkashlarga choy uzatmoqda, kimdir oshpazga yordamlashmoqda.

Bunyodkorlik faqat beton va gʻisht bilan emas, mehr-oqibat va birdamlik bilan yuz berayotgan insonni quvvontiradi. Odamlar “Prezident kelgan mahallada yashayapmiz!” degan iftixor bilan mehnat qilishayotir. Bunday muhitda har bir fuqaro oʻzini nafaqat kuzatuvchi, balki oʻzgarishlarning bevosita ishtirokchisi deb his etmoqda.

Aynan shu daxldorlik hissi, umumiy masʼuliyat tuyʻgʻusi va milliy qadriyatlarga muhabbat tufayli bugungi bunyodkorlik ishlari nafaqat mahallaning qiyofasi, balki odamlarning tafakkuri, bir-biriga boʻlgan munosabatini ham yangilamoqda.

Ulugʻbek ROʻZIMATOV
 (“Xalq soʻzi”).

Nosirjon HASANOV olgan suratlar.

Soliq qoʻmitasi xabariga koʻra, soliq toʻlovchilar uchun “EHF xavf darajasini baholash” axborot tizimi test rejimida ishga tushirildi.

KASALLIKNI DAVOLAGANDAN
UNING OLDINI OLGAN AFZAL

Mamlakatimizda barcha sohada ortga qaytmas islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda sog'liqni saqlash tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kasalliklar profilaktikasi ishlarini kuchaytirish, aholining sog'lom turmush tarziga qat'iy rioya etishini ta'minlash alohida diqqat markazida. Zero, xalqimiz bejiz aytmagan: "Kasallikni davolagandan uning oldini olgan afzal".

Sarhisob

Muhimi, tibbiy profilaktika

Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 12-noyabrda qabul qilingan "Tibbiy profilaktika ishlarini samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorda aholida sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish, kasalliklarni erta aniqlash va davolashning ilg'or tajribasini joriy etishga alohida ahamiyat qaratildi.

Qulay atrof-muhitni yaratish (ekologik holat, insonlarning mehnat, yashash va dam olish sharoitlarini yaxshilash), aholi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi mahsulotlarni iste'moldan chiqarish, emlash, maqsadli skrining va tibbiy ko'riklarini o'tkazish, tibbiy madaniyatni oshirish, adaptiv yetishmovchiliklar sabab yuzaga chiqadigan kasalliklar kelib chiqishining oldini olish, tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish tibbiy profilaktikaning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi.

– Aynan kasalliklarni davolash emas, uning oldini olishga jiddiy urg'u berilayotgani bejiz emas, – deydi Toshkent shahridagi 67-oilaviy poliklinika shifokori Lobar Elmurodova. – Jamiyatimizda butun dunyoda bo'lgani kabi noto'g'ri ovqatlanish, zararli odatlar, kamharakatlilik natijasida yurak-qon tomir, asab tizimi, qandli diabet kabi og'ir kasalliklar ko'payib boryapti. Bir achchiq haqiqatni tan olish kerak: ortiqcha vaznga ega aholi soni yoshlar o'rtasida ham yildan-yilga oshmoqda. 50 foizga yaqin aholining qon tarkibida xolesterin me'yorida ortiq, ko'pchilik qon bosimi yuqoriligidan noliydi. Garchand yurtimiz meva-sabzavat mahsulotlari koni bo'lsa-da, aholining kundalik ovqat ratsionida ularning iste'mol darajasi kam. Ana shular tufayli yillik o'lim holatlarining o'sishi kuzatilayotgani ham juda achinarli. Shu bois kasalliklarni erta aniqlash va uning oldini olish hozirgi zamon tibbiyotining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Bu borada tibbiy-profilaktika, patronaj yordamini yanada yaxshilash, tez va shoshilinch hamda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam

sifatini oshirish, aholini arzon va sifatli dori-darmon bilan ta'minlash, xususiy tibbiyotni rivojlantirish borasida ham muhim loyihalar amaliyotga kiritilmoqda.

Ilg'or texnologiyalar imkoniyatlari

Raqaamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda tibbiyot sohasiga 230 trln. so'm yo'naltirilishi natijasida birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foizga oshdi. Joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushdi, 1 244 tasi rekonstruksiya qilinib, jihozlandi. Ilgari, asosan, poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortig'i hududlarda amalga oshirilmoqda. Yuzlab murakkab amaliyotlar viloyat markazlariga, kam invaziv operatsiyalar tuman darajasiga tushirildi. Birinchi marta 45 ta tumanda buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti

“Raqaamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda tibbiyot sohasiga 230 trln. so'm yo'naltirilishi natijasida birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foizga oshdi. Joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushdi, 1 244 tasi rekonstruksiya qilinib, jihozlandi. Ilgari, asosan, poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortig'i hududlarda amalga oshirilmoqda.”

yo'lga qo'yildi. Tibbiyotdagi bu o'zgarishlarni millionlab o'zbekistonlik o'z hayotida his etmoqda, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Tibbiyot sohasidagi ilg'or texnologiyalar ta'lim jarayonlariga ham keng tatbiq qilinmoqda. Xususan, uchta oliy ta'lim muassasasi negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Sakkitza tibbiyot oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi. Bu sohada zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash imkoniyatlari yanada kengaydi. Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya jihozlari bilan ta'minlash, sohaga sun'iy intellekti joriy qilish, yagona raqamli infratuzilmani shakllantirish ishlari davom etmoqda.

Natijada "DMED" yagona elektron



axborot tizimi orqali 36 mln. nafardan ziyod fuqarolarning tibbiy ma'lumotlari yagona bazada jamlandi. Tez tibbiy yordam xizmatida elektron boshqaruv yo'lga qo'yilib, chaqiriqlarga yetib borish vaqti 25 – 30 daqiqadan 10 – 15 daqiqagacha qisqartirildi. Yaqin kelajakda "Online-shifokor" xizmati joriy etilib, aholiga masofadan tibbiy maslahat berish imkoniyati yaratiladi. Barcha tibbiy ma'lumotlar biometrik himoyaga olinib, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlandi. "Raqamli sog'liqni saqlash markazi"da barcha tibbiyot muassasalarining faoliyati real vaqt rejimida kuzatilib, surunkali

shart-sharoitlarni yaratish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika ishlarini samarali tashkil etish maqsadida mamlakatimizda "Ekofaol fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Bir million "yashil" oila" umummilliy harakati yo'lga qo'yildi. Bu borada oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokor punktlari va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning samarali tizimi joriy etildi, markazlashgan laboratoriyalar tashkil qilish, shifokor qabuliga navbatni to'liq elektron shakliga o'tkazish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, davlat tomonidan sanitariya-gigiyena normalariga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirildi. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, ularning mehnat samaradorligini baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, shunga yarasha oylik maoshlarga qo'shimcha ustama joriy qilindi.

Bilim va malaka – asosiy mezon

Tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirish, soha xodimlarini munosib ko'lab-quvvatlash Yangi O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tgan 8 yil mobaynida bu borada ko'plab farmon va qarorlar qabul qilindi, tibbiyot muassasalaridan tortib, kadrlar faoliyatigacha bo'lgan jarayon yangilandi. Kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika qilish jarayonida tibbiy xatlov o'tkazilib, aniqlangan bemorlar sog'lomlashtirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda eng ko'p tarqalgan va o'limga sabab bo'layotgan 9 ta kasallikning oldini olish va ularni erta aniqlash maqsadida xalqaro darajada to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni targ'ib etish kuchaytirildi, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun

“Bir million «yashil» oila»

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson shah'ni va qadriyatini yo'lida"gi asosiy tamoyil xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, tabdirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Prezidentimiz tomonidan 2025-yil 30-yanvarda qabul qilingan farmon asosida to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni targ'ib etish kuchaytirildi, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun

tomonidan rasmiylashtirilgan elektron resept asosida dorixonalar tomonidan dori vositalarini bemorlarga bepul berish tizimi (reimbursatsiya) yo'lga qo'yildi.

Tez tibbiy yordam shoxobchalari ko'paytirildi. O'z navbatida, tez tibbiy yordam brigadalarining zamonaviy reanimatsiya mashinalari soni oshirildi. Bu orqali tez yordamning yetib borish vaqti sezilarli darajada qisqarishiga erishildi. "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari takomillashtirilib, "Yagona tibbiyot axborot tizimi" (DMED) joriy etildi. Mazkur tizim Toshkent shahri, Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi birlamchi bo'g'in muassasalarida to'liq ishga tushirildi.

Xalqaro aloqalar samaralari

Joriy yilning noyabr oyida Toshkent tibbiyot universitetida Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi, sohaga mas'ul qator ilmiy muassasalar hamda "JSST", "CDC", "GIZ", "KOICA" kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yuqumli kasalliklar tashxisi, uning profilaktikasi va davolash masalalariga bag'ishlangani ham bejiz emas. Anjumanda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan birga AQSh, Germaniya, Rossiya, Ozarbayjon va Janubiy Koreyadan kelgan ilmiy va amaliyotchi mutaxassislar qatnashib, sohaga doir muhim masalalar, kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo'yicha o'z tajribalari hamda ilmiy yangiliklarini taqdim qiladi.

– Ushbu xalqaro ilmiy hamkorlik yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega, – deydi Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori, akademik Erkin Musaboyev. – Infeksiyalarga qarshi kurashda tizimli tahlil, erta aniqlash va profilaktika ishlarini kuchaytirish bugungi kun talabi. Bunday tahdidlarga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish aholi salomatligi muhofazasi samarali yechimlar topishga xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar kasalliklarni erta aniqlash va ularning oldini olishga, tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan bilan ahamiyatli. Bu borada barqaror natijalarga erishish uchun moliyalashtirish, kadrlarni tayyorlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirilmoqda. Yaqin kelajakda sohaga teletibbiyot integratsiyasi singari yangi texnologiyalarni jalb etish va profilaktika dasturlari orqali aholi salomatligini oshirishga e'tibor yanada kuchaytiriladi, barqaror va samarali sog'liqni saqlash tizimi joriy etiladi.

Nurulloh OSTONOV
("Xalq so'zi").

5 ta yo'nalish va 29 ta maxsus indikator bo'yicha yuklandi.

"Maksam-Chirchiq" AJ hamda "O'zbekimpeks" MChJ xalqaro "CERT International" akademiyasi tomonidan o'tkazilgan auditdan muvaffaqiyatli o'tib, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi nufuzli ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatiga qayta munosib deb topildi. Davlat xaridlari dorisida hisobot davrida 2500 dan ortiq xo'jalik shartnomalari tuzilib, barchasiga korruptsiyaga qarshi kurashish talablari kiritildi.

O'tgan davrda "O'zbekimpeks" AJ va tarmoq korxonalarining ishonch aloqa kanallari orqali jismoniy va yuridik shaxslardan yuzlab murojaatlar kelib tushdi. Shundan 12 tasi korruptsiyaga oid bo'lib, barchasi bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazildi. Uning natijalariga ko'ra 10 nafar xodimga nisbatan intizomiy choralar ko'ildi.

Umuman, tizimda illatga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar halollik, adolat, ochiqchilik va mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Dilshod KARIMOV,
"O'zbekimpeks" AJning
Korruptsiyaga qarshi kurashish
va kompaniyas boshqarmasi
boshlig'i o'rinbosari.

OFK TASNIFIDA
NAVBATDAGI TURNIR

Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) milliy terma jamoalar futbolini yanada rivojlantirish maqsadida "AFC Nations League" (OFK Millatlar ligasi) musobaqasini joriy etish rejasini ma'lum qildi.

Milliy olimpiya qo'mitasi xabariga ko'ra, ushbu yangi turnir Osiyo mamlakatlari uchun xalqaro uchrashuvlar tizimini yanada tartibli hamda barqaror qilishga qaratilgan.

Musobaqaning formati, amalga oshirish bosqichlari, shuningdek, aniq muddatlari OFK qo'mitalarining muhokamalaridan so'ng rasman e'lon qilinadi.

JAMOAMIZ JAHON
CHEMPIONATI MEZBONIGA
QARSHI O'YNAYDI

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasidan ma'lum qilishlaricha, futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi jahon chempionati oldidan Kanada terma jamoasiga qarshi o'rtoqlik o'yini o'tkazadi.



Unga ko'ra, ushbu o'yin 2026-yil 1-iyun kuni Kanadaning Edmonton shahrida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston milliy terma jamoasining mundialdagi birinchi o'yini 2026-yilning 18-iyun kuni Meksikada bo'lib o'tadi. Mazkur o'yinda Fabio Kannavaro boshchiligidagi jamoaga Kolumbiya terma jamoasi raqiblik qiladi.

DASTLABKI NATIJALAR
CHAKKI EMAS

19 – 27-dekabr kunlari Qatar poytaxti Doha shahrida og'ir atletika bo'yicha "10th Qatar weightlifting cup" musobaqasi bo'lib o'tmoqda.



Mazkur nufuzli turnirda O'zbekiston terma jamoasi ham faol qatnashib, dastlabki natijalarni qayd etdi. Jumladan, 22-dekabr holatiga ko'ra, hamyurtlarimiz olitta medal jamg'arishga erishdi. Jumladan, Munisa Odilova 48 kilogrammgacha vazn toifasida 3 ta kumush medalga ega chiqqan bo'lsa, Adhamjon Ergashev 65 kilogrammgacha vaznda 3 ta bronza medali bilan taqdirlandi. Musobaqa davom etmoqda.

CHAVANDOZLARIMIZDAN
UCHTA MEDAL

BAAning Sharja shahrida ot sportining konkur yo'nalishi bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Ushbu bellashuvda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 2 ta oltin va 1 ta bronza medallariga ega chiqdi.



Oltin medallarga Abdurahmon Abdullayev balandligi 140 va 145 sm. bo'lgan to'siqlardan sakrash dasturida erishgan bo'lsa, Bahromjon G'oziyev 125 sm. balandlikdagi to'siqlardan sakrash yo'nalishida kuchli uchiklardan joy oldi.

"Xalq so'zi".

ILLATGA QARSHI QAT'IV KURASHAMIZ!

Korruptsiya qonun buzilishidan boshlanmaydi – u insonning vijdoni buzilgan onda paydo bo'ladi. Shuning uchun halollik va adolatni jamiyatning asosiy mezoniga aylantirish korruptsiyaga qarshi kurashda eng kuchli, eng ta'sirli hamda eng barqaror mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu faqat shior emas, balki amaliy hayotda isbotlangan haqiqatdir. Shu bois halollik va adolatni jamiyatda ustuvor qadriyatga aylantirish korruptsiyani cheklashning eng tub, eng bardavom va eng insonparvar yo'lidir.



Fikr

Korruptsiyaning og'ir oqibatlarini ko'rish uchun jahonning istalgan mintaqasiga nazar tashlash kifoya. "Transparency International" xalqaro nohukumat tashkiloti har yili havola etadigan "Korruptsiyani qabul qilish indeksi"da 180 mamlakatdan 122 tasi 50 balldan past natijaga ega. Bu dunyo mamlakatlarining 70 foizdan ko'pida korruptsiya xavfli darajada degani. Korruptsiya oqibatida iqtisodiy o'sish sekinlashadi, davlat resurslari noto'g'ri taqsimlanadi, aholining davlatga ishonchi pasayadi.

BMT bahosiga ko'ra, jahonda har yili korruptsiya tufayli yo'qotiladigan mablag'lar 3 trln. dollardan oshib

ketadi. Bu butun iqtisodiyotlarni larzaga soladigan ko'rsatkichdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan bir qator huquqiy hujjatlar imzolandi. Mazkur illatning oldini olish bo'yicha davlatimiz qat'iy siyosat olib bormoqda. Xususan, shu yil 21-aprelda Prezidentimizning "Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyatini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va bu bilan mazkur yo'nalishdagi islohotlar yangi bosqichga olib chiqildi.

Qarorga muvofiq, davlat organlari

va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat yo'nginlarini tashkil etishning yangilangan mezonlari, xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish, faoliyatini baholash, rag'batlantirish hamda faoliyatlarining asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi.

Yuqoridagi qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga muvofiq "O'zbekimpeks" AJ hamda uning tarmoq korxonalari hisoblangan "Maksam-Chirchiq" AJ, "Ammofos Maksam" AJ, "O'zbekimpeks" MChJda korruptsiyaga qarshi kurashish va

Bosh muharrir O'ktir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G'. Bahromov.
Masuhhih SH. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.40

1 2 3 4 5 6